

XII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2022- yil yanvar-mart, dastlabki ma’lumot)

2022- yilning yanvar-mart oylarida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda (qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 979,0 ming so‘mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 18,1 % ga oshdi.

O‘rtacha oylik ish haqini hisoblash uchun qabul qilingan xodimlar soni 2 228 ta korxonalar va tashkilotlarda 211,0 ming kishini tashkil qildi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan asosiy mehnat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi, foizda (qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Korxonalar va tashkilotlar soni	99,7%
	Xodimlar soni	102,4%
	Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar	124,8%
	O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi	118,1%

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy mehnat ko'rsatkichlarining o'zgarishi
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, yanvar-mart oylari)


№	Iqtisodiy faoliyat turlari	O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan va tashkilotda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni, ming kishi			Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar - jami, mlrd. so'm		
		2021- yil	2022- yil	o'sish, foizda	2021- yil	2022- yil	o'sish, foizda
1	Sanoat	40,5	42,5	104,9	371,5	488,2	131,4
2	Qurilish	1,2	0,8	66,7	6,9	4,1	59,4
3	Savdo	2,7	1,8	66,7	17,5	12,0	68,6
4	Tashish va saqlash	2,5	2,5	100,0	11,5	15,3	133,0
	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat	0,3	0,1	33,3	1,9	0,6	31,6
6	Axborot va aloqa	0,9	1,0	111,1	7,6	10,0	131,6
7	Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	3,9	3,8	97,4	71,3	99,4	139,4
8	Ta'lim sohasi	90,1	93,2	103,4	558,5	681,0	121,9
9	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasi	37,4	37,9	101,3	225,2	271,4	120,5
	San'at, ko'ngil ochish va dam olish	2,2	2,1	95,5	11,2	12,7	113,4
11	Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasi	24,3	25,3	104,1	177,6	227,7	128,2
	Viloyat bo'yicha jami	206,0	211,0	102,4	1 460,7	1 822,4	124,8

2022-yilning yanvar-mart davrida oʻrtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan va tashkilotda mehnat daftarchalari mavjud boʻlgan xodimlar soni koʻrsatkichi boʻyicha eng katta oʻsish axborot va aloqa sohasida (11,1 % ga oʻsish) va eng kam pasayish savdo sohasida (66,7 % ga kamayish) kuzatildi.

Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar koʻrsatkichi boʻyicha esa eng katta oʻsish bank, sugʻurta, lizing, kredit va vositachilik sohasida (39,4 % ga oʻsish) va eng kam pasayish savdo sohasida (68,4 % ga kamayish) kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha asosiy mehnat koʻrsatkichlarining oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʼati, foizda

(qishloq xoʻjaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



■ Oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

■ Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar - jami


■ Oʻrtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan va tashkilotda mehnat daftarchalari mavjud boʻlgan xodimlar soni

Shahar va tumanlar kesimida asosiy mehnat ko'rsatkichlari
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, yanvar-mart oylari)

№	Hudud	O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan va tashkilotda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni, ming kishi			Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar - jami, mlrd so'm		
		2021- yil	2022- yil	o'sish, foizda	2021- yil	2022- yil	o'sish, foizda
	Andijon viloyati	206,0	211,1	102,5	1 460,7	1 822,4	124,8
	<i>shaharlar:</i>						
1	Andijon sh.	63,0	62,5	99,2	549,3	680,9	124,0
2	Xonobod sh.	4,7	4,8	102,1	32,1	41,8	130,2
	<i>tumanlar:</i>						
3	Oltinko'1	7,7	9,5	123,4	43,4	57,5	132,5
4	Andijon	13,7	13,8	100,7	80,2	95,1	118,6
5	Baliqchi	9,5	10,1	106,3	47,9	59,2	123,6
6	Bo'ston	5,1	5,5	107,8	24,9	30,9	124,1
7	Buloqboshi	6,9	6,8	98,6	35,3	41,6	117,8
8	Jalaquduq	8,0	8,9	111,3	46,2	55,0	119,0
9	Izboskan	9,5	9,6	101,1	55,0	67,7	123,1
10	Ulug'nor	4,4	4,6	104,5	22,2	29,2	131,5
11	Qo'rg'ontepa	12,3	12,6	102,4	68,2	85,6	125,5
12	Asaka	23,8	23,9	100,4	243,2	303,4	124,8
13	Marhamat	8,4	8,3	98,8	43,4	53,6	123,5
14	Shahrixon	11,5	11,9	103,5	66,7	85,5	128,2
15	Paxtaobod	9,2	8,9	96,7	56,4	67,8	120,2
16	Xo'jaobod	8,3	9,4	113,3	46,3	67,6	146,0

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2022- yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so'm)





Sanoat sohasidagi 75 ta korxonada va tashkilotlarda 42,5 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 20,2 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 448,2 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 26,8 %) tashkil etdi. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 3 936,9 ming so'mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 23,6 % ga o'sdi.

Qurilish faoliyat turidagi 11 ta korxonada 0,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 4,1 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,2 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 917,5 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 12,9 % ga pasaygani kuzatildi.



Savdo faoliyat turidagi 26 ta korxonada 1,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 12,0 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 078,3 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,5 % ga pasaygani kuzatildi.

Tashish va saqlash faoliyat turidagi 14 ta korxonada 2,5 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,2 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 15,3 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 049,9 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 18,8 % ga o'sdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi 4 ta korxonada 0,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,1 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 0,6 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,1 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 315,8 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 39,7 % ga pasaygani kuzatildi.



Axborot va aloqa sohasidagi 9 ta korxonada 1,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,5 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 10,0 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,5 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 3 468,9 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 30,7 % ga o'sdi.

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik iqtisodiy faoliyat turidagi 25 ta korxonada 3,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,8 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 99,4 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 5,5 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 8 438,7 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 49,4 % ga o'sdi.



Ta'lim sohasi iqtisodiy faoliyat turidagi 1 509 ta korxonada 93,2 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 44,2 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 681,0 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 37,4 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 511,9 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 11,7 % ga o'sdi.

Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi 81 ta korxonada 38,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 18,0 %) xodimlar oʻz faoliyatini yuritgan boʻlib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 271,4 mlrd. soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi 14,9 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi 2 468,6 ming soʻmni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 16,4 % ga oʻsdi.




Sanʼat, koʻngil ochish va dam olish sohasidagi 70 ta korxonada 2,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,0 %) xodimlar oʻz faoliyatini yuritgan boʻlib, ularga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar 12,7 mlrd. soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi 2 044,5 ming soʻmni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 15,8 % ga oʻsdi.

Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasidagi 404 ta korxonada 25,3 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 12,0 %) xodimlar oʻz faoliyatini yuritgan boʻlib, ularga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar 227,7 mlrd. soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi 12,5 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi 2 997,4 ming soʻmni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 23,5 % ga oʻsdi.




Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng yuqori oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori bank, sugʻurta, lizing, kredit va vositachilik faoliyat turida kuzatildi va 8 438,7 ming soʻmni tashkil etdi. Shuningdek, yuqori koʻrsatkichlar sanoat faoliyat turida (3 936,9 ming soʻm) va axborot va aloqa faoliyat turida (3 468,9 ming soʻm) kuzatildi. Eng past koʻrsatkich esa yashash va ovqatlanish faoliyat turida kuzatildi va 1 315,8 ming soʻmni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2022- yil yanvar-mart, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)



Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Asaka tumani (4 371,5 ming so‘m), Andijon shahrida (3 739,6 ming so‘m) kuzatildi. Aksincha, Bo‘ston va Baliqchi tumanlarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi boshqa hududlarga nisbatan past miqdorda bo‘ldi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur‘ati
(2022- yil yanvar-mart, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)




O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yil yanvar-mart oylarida; qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)

	2021- yil	2022- yil	O‘sish sur‘ati, %
Andijon viloyati	2 522,2	2 979,0	118,1
<i>shaharlar</i>			
Andijon sh.	3 065,3	3 739,6	122,0
Xonobod sh.	2 443,9	3 028,8	123,9
<i>tumanlar</i>			
Oltinko‘l	2 026,8	2 093,9	103,3
Andijon	2 099,2	2 379,5	113,4
Baliqchi	1 821,2	2 028,2	111,4
Bo‘ston	1 749,9	1 951,0	111,5
Buloqboshi	1 853,0	2 118,2	114,3
Jalaquduq	2 067,7	2 141,6	103,6
Izboskan	2 91,4	2 455,8	117,4
Ulug‘nor	1 806,4	2 185,3	121,0
Qo‘rg‘ontepa	1 978,9	2 355,2	119,0
Asaka	3 635,5	4 371,5	120,2
Marhamat	1 849,7	2 236,3	120,9
Shahrixon	2 084,3	2 486,9	119,3
Paxtaobod	2 197,4	2 644,1	120,3
Xo‘jaobod	2 005,8	2 506,5	125,0

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat ko'rsatkichiga nisbatan o'sish sur'ati

(2022- yil yanvar-mart oylarida, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining viloyat ko'rsatkichiga nisbatan yuqori darajasi Asaka tumani (4 371,5 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 46,7 % ga yuqori), Andijon shahri (3 739,6 ming so'm, 25,5 % ga yuqori) da kuzatilgan bo'lsa, Bo'ston tumani (1 951,0 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 65,5 % ga past) va Baliqchi tumani (2 028,2 ming so'm, viloyat ko'rsatkichidan 68,1 % ga past) da kuzatildi.

Ma'lumot uchun:

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021 yil sentabr oyidan **822 000** so'mni tashkil etgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021- yil 17-avgustdagi PF 6279-sonli farmon) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

